

LIMON O'SIMLIGINING INSON SALOMATLIGI UCHUN FOYDALARI VA ZARARLARI

Haydarova Shirin Ibroxim qizi

Prezident Ta'lim Muassasalari agentligi qoshidagi

Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan mактабning

7-“B” sinf o‘quvchisi

Annotatsiya:

Azaldan limon o'simligi shifobaxsh o'simlik sifatida qadrlangan.Uning tarkibida juda ko'p inson salomatligi uchun foydali moddalar juda ko'p.Bu bizning ilmiy ishimiz limonning inson uchun foydalari va zararlari haqida qisqacha ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: citrus,rutadosh,C vitaminini,kislotalar,temir moddasi,limon sharbati,limon po'sti.



Limon, limu (*Citrus limon*) — rutadoshlar (situslar turkumi)ga kiradigan doim yashil ko'p yillik daraxtlar turi, mevali ekin. Vatani — Janubiy va Jan.-Sharqiy Osiyo. Yovvoyi holda o'sishi aniqlanmagan. O'rta Dengiz, AQSH, Meksika, Argentina va boshqa mamlakatlar subtropiklarida, Kavkazning Qora dengiz bo'yalarida, O'rta Osiyoda (transheyalarda) ekiladi.

Shuningdek, uy sharoitlarida o'stililadi.

Daraxti balandligi 3–7 m, shoxshabbasi yoyiq. Novdalari tikanli, ba'zilari tikansiz. Bar-gi qalin, och yashil, cho'ziq-tuxumsimon. Gullari ikki jinsli, oq, xushbo'y. Mevasi tuxumsimon, ba'zan dumaloq. o'rtacha og'irligi 120—400 g ga boradi. Po'sti sariq, silliq yoki g'adir-budur, taxir. Eti 8—12 pallali, och sariq, sersuv, nordon. Asosan,

qalin, och yashil, cho'ziq-tuxumsimon. Gullari ikki jinsli, oq, xushbo'y. Mevasi tuxumsimon, ba'zan dumaloq. o'rtacha og'irligi 120—400 g ga boradi. Po'sti sariq, silliq yoki g'adir-budur, taxir. Eti 8—12 pallali, och sariq, sersuv, nordon. Asosan,



ho'lligicha yeylimasi, konditer mahsulotlari tayyorlashda, sharbat, limonad, limon kislota olishda ishlataladi. Sharbat tarkibida 3,5—8,1% kislota (asosan, limon kislotasi) 1,9—3,0% kand, vitamin S (100 g ida 45–140 mg), RR va V hamda pektin moddalar, temir, fosfor, kaliy, kalsiy, magniy tuzlari bor.



1.Limonni ishlatalishi va ta'siri.

Xalq tabobatida limon mevalaridan me'da,jigar,o't yo'llari kasalliklari,buyrak cassaliklari,podagra,revmatizmlarda davo uchun foydalaniladi.Isitmada,kasalliklardan tuzalish davrida limon buyuriladi.Gipertoniya kasalligi va qandli diabetda davo uchun ham limon mevalaridan foydalaniladi.Qadim zamonlarda me'da, jigar ishini kuchaytirish uchun,yuqumli kasalliklar,bronxial astma, anginada limondan foydalanilgan,limon suvini esa husnbuzarlarni yo'qotish uchun yuzga surtilgan.Qora choyga limon solib,asal bilan ichilsa,yo'talga davo bo'lad.

Zamonaviy tibbiyotda limondan har xil sabablarga aloqador ko'pgina kasalliklarda servitamin vosita sifatida foydalaniladi.Shifobaxsh xossalari jihatidan limon mevalari boshqa sitrus mevalarga qaraganda ustun turadi. Mevalarida limon kislota borligi istimalab yotgan bemorlarga limondan foydalanib, har xil nordon,ko'ngilochar ichimliklar tayyorlashga imkon beradi.



2.Limonning foydalari.

LIMONDA MAVJUD BO'LGAN S VITAMINI IMMUNITETNI YAXSHILAYDI. TADQIQOTLAR SHUNI KO'RSATDIKI, BU VITAMIN ZAIF IMMUNITET TUFAYLI YUZAGA KELADIGAN SHAMOLLASHNING DAVOMIYLIGINI QISQARTIRISHI MUMKIN. LIMON HAM ASTMAGA QARSHI HIMoya TA'SIRIGA EGA. LIMONNI ASAL BILAN ARALASHTIRISH HAM YO'TALNI YO'QOTISHGA YORDAM BERADI. GRIPPGA YAXSHI BO'LGAN LIMON YO'TAL, TOMOQ OG'RIG'I VA HATTO QULOQ INFEKTSIYALARIGA FOYDALIDIR.

Limon shamollahda eng birinchi yordamchi vazifasini o'taydi. Ammo bundan tashqari uning foydali xususiyatlari juda

serob bo'lib, shu sababdan uni qadim zamondan ishlatib kelishgan. Shunday qilib, limonning o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

- limon moddalar almashinuvini yaxshilaydi;
- o'zida temir moddasini saqlashi sabab ham, kamqonlikda ham foydalidir;
- limon yurak-tomir tizimini mustahkamlaydi;
- shamollah va anginada u nafaqat C guruh vitaminini borligi sababidan foydalidir, balki u shamollahga qarshi samarali kurashadi;
- garmonlar muvozanatini ushlab turadi;

- immunitetni mustahkamlaydi.



3.Limonning inson salomatligi uchun zararlari.

Ushbu mevalar kuchli allergenlardir. Limonning zarari shundaki, u dermatitni keltirib chiqarishi va ko‘p miqdordagi kislotalar tufayli tish emaliga zarar yetkazishi mumkin. Shakar miqdori yuqori bo‘lgani sababli mahsulot diabet va oshqozon yarasi bilan og‘igan odamlarga tavsiya etilmaydi. Bundan tashqari, u oshqozon osti bezi ishiga ham aks ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Limonning foydali xususiyatlariga ehtiyoj sezilgan taqdirda ham uni me’yorida iste’mol qilish kerak.

Bosh og‘rig‘i. Tadqiqotlar davomida olimlar limonga haddan tashqari ishtiyoq bosh og‘rig‘iga olib kelishi mumkinligini aniqladilar.

Limonda sezilarli miqdorda tiramin mavjud. Bu miyada qon aylanishini rag‘batlantiradigan organik modda hisoblanadi. Bu qon oqimining oshishi bosh og‘rig‘iga olib kelishi mumkin.

Buyrak toshlari. Limon sharbatidan tashqari, limon qobig‘i kundalik hayotda va turli xil mahsulotlar ishlab chiqarishda qo’llaniladi. Oshpazlar, masalan, pishirishda ularsiz qila olmaydi. Ammo limon qobig‘ida juda ko‘p oksalatlar mavjud. So‘rilmaydigan bu modda tanada, shu jumladan buyraklarda kristallanib, toshlar paydo bo‘lishiga olib keladi.

Xulosa

Shunday qilib limonning foydalari bilan birga zararlari ham bor uni iste’mol qilishda me’yori bilan iste’mol qilish kerak, aks holda u bizning salomatligimizda muammolar paydo qiladi.

Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1st April, 2024

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O'ZBEKISTONDA O'SADIGAN SHIFOBAXSH O'SIMLIKLARNING
ETIMOLOGIK ZAMONAVIY ENSIKLOPEDIYASI
- 2.WIKEPEDIYA.UZ
- 3.ZIRA.UZ

